

Akademik litseylarga test sinovlari 24-25-iyul kunlari bo'ladi

2025-2026-o'quv yili uchun akademik litseylarga kirish test sinovlari **24-iyul** kuni (barcha hududlarda) **va 25-iyul** kuni (faqat Toshkent shahrida) bo'lib o'tadi. Bunda:

✓ **1-smena** — 09:00 da;

✓ **2-smena** — 15:00 da boshlanadi.

👉 Test sinovlari **ta'lim yo'nalishiga mos 2 ta fan** va **intellektual qobiliyat darajasi (IQ)** ni aniqlash bo'yicha o'tkaziladi.

❌ Barcha test topshiruvchilar uchun topshiriqlar soni jami **60 ta** bo'lib, shundan **20 tasi o'quvchining intellektual qobiliyat darajasi (IQ)**ni aniqlash bo'yicha hamda ta'lim yo'nalishlariga mos **ikkita fan** bo'yicha jami **40 ta** test savollari tushadi.

❌ **To'plash mumkin bo'lgan maksimal ball — 146:**

◆ **1-fan** — $3.1 \cdot 20 = 62$;

◆ **2-fan** — $3.1 \cdot 20 = 62$;

◆ **IQ** — $1.1 \cdot 20 = 22$.

❌ Talabgorlar qachon, qayerda test sinovida ishtirok etishini **my.edu.uz** sayti orqali shaxsiy kabinetidan bilishlari va **ruxsatnomani** yuklab olishlari mumkin.

❌ Talabgorlar test sinovi o'tkaziladigan hududga test sinovi boshlanishidan kamida bir yarim soat oldin **shaxsini tasdiqlovchi hujjat** va test sinovida ishtirok etish uchun **ruxsatnoma** bilan kelishlari lozim.